ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARINING MILLIY-HUQUQIY ASOSLARI

**Jumamuratova Mexribonu Bayrambayevna**
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar Fakulteti
Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Toshkent viloyati , O‘zbekiston
E-mail: mexribonujumamuratova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23685674

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarini ta’minlashning milliy-huquqiy asoslari, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashish jarayonlari hamda so‘nggi yillarda qonunchilik tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar qiyosiy-tahliliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun hamda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi normalari tahlil qilinib, amaldagi statistik ma’lumotlar asosida mamlakatimizdagi demografik ko‘rsatkichlar va bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlarining samaradorligi ochib berilgan.
**Kalit so‘zlar:** Bola huquqlari, Konstitutsiya, Konvensiya, milliy-huquqiy asoslar, kafolatlar, ijtimoiy himoya, qiyosiy tahlil, bola huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman), voyaga yetmaganlar, demografik ko‘rsatkichlar.

# NATIONAL LEGAL FRAMEWORK FOR CHILD RIGHTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Abstract:**This article provides a comparative and analytical overview of the national legal framework for ensuring child rights in the Republic of Uzbekistan, the processes of harmonization with international standards, and fundamental reforms implemented in the legislative system in recent years. Furthermore, analyzing the norms of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "In Guarantees of Child Rights", and the UN Convention on the Rights of the Child, the paper highlights demographic indicators and evaluates the efficiency of social protection mechanisms for children based on current statistical data.
**Keywords:** Child rights, Constitution, Convention, national legal framework, guarantees, social protection, comparative analysis, Ombudsman for Children, minors, demographic indicators.

# НАЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ РЕБЕНКА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Аннотация:** В данной статье на основе сравнительно-аналитического подхода освещаются национально-правовые основы обеспечения прав ребенка в Республике Узбекистан, процессы их гармонизации с международными стандартами, а также коренные реформы, осуществленные в системе законодательства за последние годы. Кроме того, анализируются нормы Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, Закона «О гарантиях прав ребенка» и Конвенции ООН

о правах ребенка, а также на основе актуальных статистических данных раскрываются демографические показатели страны и эффективность механизмов социальной защиты детей.

**Ключевые слова:** Права ребенка, Конституция, Конвенция, национально-правовые основы, гарантии, социальная защита, сравнительный анализ, Уполномоченный по правам ребенка (омбудсман), несовершеннолетние, демографические показатели.

**KIRISH**

Bola jamiyatning eng zaif, ayni paytda eng qadrli a'zosi bo‘lib, uning huquqlarini himoya qilish davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda bola tushunchasiga to‘xtalib o‘tish zarur. O’zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko‘ra, o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs bola hisoblanadi.[1]

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati bola huquqlarini nafaqat insonparvarlik talabi, balki barqaror taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida qaramoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (2015–2030) doirasidagi 17 ta maqsaddan quyidagilari bevosita bola huquqlari bilan bog‘liq:

– Qashshoqlikning barcha shakllariga barham berish (1-maqsad)

– Ochlikni bartaraf etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligini rivojlantirish (2-maqsad)

– Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagilar farovonligini rag'batlantirish (3-maqsad)

– Barcha uchun inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash (4-maqsad)

– Gender tengligini ta'minlash va barcha xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish (5-maqsad)

– Barqaror rivojlanish uchun tinch va ochiq jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash (16-maqsad). [2]

O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bola huquqlarini xalqaro standartlar darajasida himoya qilish yo‘lini tanladi: 1992-yil 9-dekabrda Oliy Kengash qarori bilan 1989-yilgi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi va Konvensiya mamlakat uchun 1994-yilda kuchga kirdi. [3] Shundan buyon milliy qonunchilik izchil rivojlanib, bolalarning huquqlari Konstitutsiya, kodekslar, maxsus qonunlar va ko‘plab qonunosti hujjatlarida o‘z aksini topdi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, O‘zbekiston aholisining muhim qismini bolalar va yoshlar tashkil etadi: 2026-yil boshida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalariga ko‘ra, mamlakat aholisining 30,5 foizi 14 yoshgacha, 38,5 foizi esa 20 yoshgacha bo‘lgan shaxslardir.[4]Demak, bola huquqlarining ta’minlanishi mamlakat kelajagiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Ikkinchidan, 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri inson huquqlari, shu jumladan oila va bolalik himoyasi bo‘yicha normalarni sezilarli darajada kengaytirdi. Jumladan, Konstitutsiyaning 77-moddasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlatning majburiyati sifatida belgilangan, 78-moddasida esa bolalik davlat muhofazasida ekani mustahkamlangan. [5] Uchinchidan, bolalar mehnati, zo‘ravonlik, ijtimoiy yetimlik, inklyuziv ta’lim

[1] O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni:2020-yil 13-mart , O‘RQ-610-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz: https://lex.uz/docs/-4761984

[2] United Nations General Assembly. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1). United Nations. https://sdgs.un.org/2030agenda

[3] Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya: BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qaroriga muvofiq qo‘shilgan. Norasmiy tarjima. — Lex.uz: https://lex.uz/uz/docs/-2595913

[4] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari, 2026- yil. — Kun.uz: https://kun.uz/news/2026/07/01/ozbekiston-aholisining-385-foizi-hali-20-yoshga-tolmagan-8e087b

[5] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan, XIV bob, 50, 77 va 78-moddalar. — Lex.uz: https://lex.uz/docs/-6445145

kabi muammolar bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari milliy huquqiy mexanizmlarni muntazam takomillashtirishni taqozo etmoqda.

**ASOSIY QISM**

O‘zbekistonda bola huquqlarini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi uch darajali tuzilishga ega:

• Konstitutsiya va xalqaro shartnomalar;

• bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi maxsus qonun va sohaviy kodekslar;

• hukumat qarorlari, Prezident farmon va qarorlari hamda idoraviy hujjatlar.

O‘zbekiston huquqiy tizimida xalqaro shartnomalar ustuvorligi tamoyili e’tirof etilgan: «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, agar xalqaro shartnomada O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.[6] Demak, Konvensiya normalari sudlar va boshqa davlat organlari tomonidan bevosita qo‘llanilishi mumkin. (Biroq amaliyotda bunday murojaatlar hali kam uchraydi).

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligining ilk yillaridanoq jahon hamjamiyatining e’tirof etilgan hujjatlari bo‘yicha o‘z zimmasiga majburiyatlar oldi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qaroriga muvofiq qo‘shildi. Mazkur xalqaro hujjat 1994-yil 29-iyuldan boshlab O‘zbekiston uchun kuchga kirdi va milliy qonunchilikni shakllantirishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qildi. Konvensiya jahonda eng ko‘p davlat qo‘shilgan inson huquqlari bo’yicha shartnoma hisoblanadi, unga BMTning deyarli barcha a‘zolari ishtirokchi bo‘lgan.[7]

Konvensiyaning to‘rtta asosiy tamoyili milliy qonunchilik uchun yo‘naltiruvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Bular:

– kamsitmaslik (2-modda);

– bolaning eng yaxshi manfaatlarini ustun qo‘yish (3-modda);

– yashash, omon qolish va rivojlanish huquqi (6-modda) ;

– bolaning o‘z fikrini erkin bildirish va uning inobatga olinishi huquqi (12-modda). [8]

O‘zbekiston Konvensiyaga qo‘shilgach, uning Ixtiyoriy protokollari [9]:

| PROTOKOL | Qabul qilingan | Kuchga kirgan | O‘zbekiston |
|---|---|---|---|
| Bolalarning qurolli mojarolarga jalb etilishi to‘g‘risida | 2000-yil 25-may | 2002-yil 12-fevral | 2008-yil 23-dekabr |
| Bolalar savdosi, bolalar fohishaligi va bolalar pornografiyasi to‘g‘risida | 2000-yil 25-may | 2002-yil 18-yanvar | 2008-yil 23-dekabr |
| Shikoyat (xabar) berish tartibi to‘g‘risida | 2011-yil 19-dekabr | 2014-yil 14-aprel | ishtirokchi emas |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston bolalarning qurolli mojarolarga jalb etilishi hamda bolalar savdosi, bolalar fohishaligi va bolalar pornografiyasiga oid protokollarga 2008-yil 23-dekabrda qo‘shilgan. Xabarnomalar tartibi to‘g‘risidagi uchinchi protokolda esa mamlakat hozircha ishtirokchi emas. Shuningdek, O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli (Ish bilan bandlikka qabul qilishning

[6] O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi Qonuni: 2019-yil 6-fevral, O‘RQ-518-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz: https://lex.uz/docs/-4193761

[7] United Nations Treaty Collection. Convention on the Rights of the Child, New York, 20 November 1989. — https://treaties.un.org

[8] Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya, 2, 3, 6 va 12-moddalar. — Lex.uz: https://lex.uz/uz/docs/-2595913

[9] United Nations Treaty Collection. Optional Protocols to the Convention on the Rights of the Child: status of ratification, Uzbekistan. — https://treaties.un.org

minimal yoshi) hamda 182-sonli (Bolalar mehnatining eng yomon shakllari) konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan. Bu hujjatlar bolalar mehnatiga qarshi milliy siyosatning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Milliy qonunchilik tizimida Konstitutsiya eng yuqori yuridik kuchga ega asosiy hujjat sifatida bola huquqlarini tartibga soluvchi barcha normalarning poydevorini tashkil etadi. 1992-yilgi Konstitutsiyaning dastlabki tahririda bolaga oid qoidalar asosan oila va ota-onalar majburiyatlari bilan bog‘liq normalarda mujassam edi. Xususan, ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majbur deb belgilangan. (64-modda); farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar qonun oldida teng deb e‘tirof etilgan, onalik va bolalik esa davlat muhofazasiga olingan (65-modda).Yetim bolalar va ota-ona vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitish davlat va jamiyat zimmasiga yuklangan (64-modda), voyaga yetmaganlarning huquqlari esa davlat himoyasida deb belgilangan (45-modda).[10] Biroq bu normalar, garchi muhim bo‘lsa-da, bolani mustaqil huquq subyekti sifatida emas, ko‘proq oila institutining tarkibiy qismi sifatida qamrab olgan, bola huquqlari esa alohida va batafsil tartibga solinmagan.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumi asosida qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahririda esa bola huquqlariga bag‘ishlangan maxsus normalar tubdan kuchaytirildi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash va himoya qilish davlatning majburiyati sifatida mustahkamlandi (77-modda), bolalik davlat muhofazasida ekani esa alohida belgilab qo‘yildi (78-modda).

Bola huquqlari bo‘yicha konstitutsiyaviy kafolatlar tizimi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

• **tenglik va kamsitmaslik** – barcha bolalar jinsi, millati, kelib chiqishi, ota-onasining ijtimoiy holatidan qat’i nazar teng huquqlarga ega;

• **ijtimoiy huquqlar** – bepul umumiy o‘rta ta’lim, tibbiy yordam va ijtimoiy ta’minot huquqi;

• **oila va ota-ona mas’uliyati** – bolani tarbiyalash ota-onaning birlamchi majburiyati, davlat esa ularni qo‘llab-quvvatlashga majbur;

• **davlat himoyasi** – ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni davlat himoyalashi. Bu konstitutsiyaviy normalar davlat va ota-onalarning mas’uliyatini aniq chegaralab qo‘yish bilan birga, bolalarning huquqiy maqomini eng yuqori darajada kafolatladi.Shuni alohida ta’kidlash lozimki, konstitutsiyaviy normalarning samaradorligi ularni amalga oshiruvchi sohaviy qonunchilik va sud amaliyotiga uzviy bog‘liqdir.

**«Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun.** 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan ushbu Qonun bola huquqlari sohasidagi asosiy maxsus hujjat hisoblanadi.[11] Uning asosiy ahamiyati shundaki, u Konvensiya tamoyillarini milliy qonunchilikka joriy etgan hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun bola tushunchasini belgilaydi, bolaning yashash, ismga ega bo‘lish, fuqarolik, oilada yashash va tarbiyalanish, fikr bildirish, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, mulkiy va boshqa huquqlarini mustahkamlaydi. Qonunning o‘ziga xos jihati shundaki, u bola huquqlarini ta‘minlashda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ota-onalarning vakolat hamda mas’uliyat chegaralarini aniq belgilaydi.

**Oila qonunchiligi.** 1998-yilda kuchga kirgan Oila kodeksi bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini, ota-onalik huquq va majburiyatlarini, aliment majburiyatlarini, ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish va ularni cheklash, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik institutlarini tartibga soladi. Kodeksda bolaning fikrini hisobga olish, muayyan yoshdan boshlab esa uning roziligini talab qilish kabi qoidalar mavjud bo‘lib, ular Konvensiyaning 12-moddasi bilan uyg‘unlashadi.

**Ta‘lim sohasidagi qonunchilik.** 2020-yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va boshqa ta’lim turlarini tartibga solib, ta’limning

[10] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan; 2023-yilgacha amalda bo‘lgan tahrir), 45, 64 va 65-moddalar. — Lex.uz: https://lex.uz/acts/-20596

[11] O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz: https://lex.uz/acts/-1297315

uzluksizligi, inklyuzivligi va davlat kafolatlarini mustahkamladi. Qonunda majburiy umumiy o‘rta ta’lim, shuningdek, maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv va maxsus ta’lim shartlari nazarda tutilgan.

**Jinoyat va mehnat qonunchiligi.** Jinoyat kodeksi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar (jumladan, jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar, bolalarni fohishalikka jalb qilish, odam savdosi) uchun og‘irlashtiruvchi holatlar va jazolarni belgilaydi, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashning alohida qoidalarini o‘z ichiga oladi. Mehnat kodeksi esa ishga qabul qilishning minimal yoshini, voyaga yetmaganlar mehnatiga oid cheklovlarni va qo‘shimcha kafolatlarni belgilaydi.

**Institutsional mexanizmlar**

Huquqiy normalarning samaradorligi ularni amalga oshiruvchi institutlar faoliyatiga bog‘liq. O‘zbekistonda bola huquqlari sohasidagi institutsional tizim quyidagi bo‘g‘inlardan iborat:

• **Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar.** Respublika, viloyat va tuman (shahar) darajasida faoliyat yuritib, huquqbuzarliklar profilaktikasi va bola huquqlarini himoya qilish masalalarini muvofiqlashtiradi.

• **Vasiylik va homiylik organlari.** Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar huquqlarini himoya qiladi, farzandlikka berish va vasiylikka oid qarorlar qabul qiladi.

• **Xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, ichki ishlar, mehnat va kambag‘allikni qisqartirish tizimidagi idoralar.** O‘z vakolatlari doirasida bolalarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlaydi.

• **Mustaqil monitoring institutlari.** Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) hamda Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Bolalar ombudsmani). Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi dastlab Ombudsman o‘rinbosari sifatida tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-yil 29-fevraldagi O‘RQ-917-sonli Qonun bilan bu institut mustaqil mansabdor shaxs maqomini oldi. Vakil Oliy Majlis palatalari tomonidan besh yil muddatga saylanadi va bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.[12]

• **Fuqarolik jamiyati institutlari.** «Mahalla» institutlari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, yoshlar tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar (UNICEF, ILO va boshqalar).

**BOLALAR OMBUDSMANI INSTITUTI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs hisoblanadi.

O‘zbekistonda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda bu borada davlat siyosatining ta’sirchanligini oshirishda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili instituti muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda inson huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish jarayonida mazkur institutning tashkil etilishi huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

**Yaratilish tarixi va huquqiy maqomi**.O‘zbekistonda bolalar ombudsmani instituti bosqichma-bosqich shakllandi. Ilk bosqichlarda Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) devoni tarkibida bolalar huquqlari bo‘yicha masalalar ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, keyinchalik davlat rahbari va hukumat tashabbusi bilan bu yo‘nalishni mustaqil va ixtisoslashgan darajaga ko‘tarish zarurati yuzaga keldi. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili instituti joriy etilib, uning

[12] O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida»gi Qonuni: 2024-yil 29-fevral, O‘RQ-917-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz

faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar mustahkamlandi. Shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida»gi O‘RQ-917-sonli Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 7 bob va 45 moddadan iborat bo‘lib, unda vakil faoliyatining huquqiy asoslari, asosiy prinsiplari, lavozimiga nomzodga qo‘yiladigan talablar, vakilning asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mintaqaviy vakillari maqomi aniq belgilab berilgan. Huquqshunos olimlar va milliy qonunchilik ekspertlarining ta’kidlashicha, mazkur institutning tashkil etilishi BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi tamoyillarini milliy qonunchilikka to‘laqonli tatbiq etishda hal qiluvchi qadam bo‘ldi.

**Asosiy vazifalari va vakolatlari.** Bolalar ombudsmani o‘z faoliyatida bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda buzilgan taqdirda ularni tiklashga ko‘maklashadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• Shikoyatlarni ko‘rib chiqish: Bolalar, ularning qonuniy vakillari hamda jamoatchilik vakillaridan kelib tushadigan murojaat va shikoyatlarni o‘rganish.

• Huquqiy monitoring: Bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik ijrosini tahlil qilish, amaliyotdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish.

• Profilaktika va xabardorlik: Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, jamiyatda bolalarga nisbatan

zo‘ravonlikning har qanday shakliga murosasiz muhitni shakllantirish.

Mashhur huquqshunos olimlar va xalqaro ekspertlar fikriga ko‘ra, bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi bevosita maxsus ombudsman institutining mustaqilligi va moliyaviy-tashkiliy ta’minotiga bog‘liq. Professor T. Saidov o‘zining ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlaganidek: "Bolalar ombudsmani shunchaki nazorat organi emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasida bolalar manfaati yo‘lida ko'prik vazifasini bajaruvchi ijtimoiy-huquqiy kafolatdir".

**Murojaatlar dinamikasi va statistik ko‘rsatkichlar**. Bolalar ombudsmani instituti faoliyatining amaldagi samaradorligini uning rasmiy yillik hisobotlari va qabul qilingan amaliy choralari misolida yaqqol ko‘rish mumkin. So‘nggi yillarda mazkur institutga kelib tushayotgan murojaatlar sonining keskin oshishi aholining huquqiy ongining o‘sishi bilan birga, mazkur tuzilmaga bo‘lgan ishonch yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko'ra, Bolalar ombudsmani faoliyatida murojaatlar ko‘lami yildan-yilga kengayib bormoqda:

• Murojaatlar o‘sishi: Masalan, 2024-yilda Bolalar ombudsmani nomiga avvalgi yilga nisbatan 2,4 baravar ko‘p — jami 1064 ta murojaat kelib tushgan.2026-yilga kelib esa bolalar huquqlari doirasida 1147 ta murojaat kelib tushib, ulardan 8 tasiga jinoiy javobgarlik hamda 15 tasiga ma’muriy javobgarlik qo‘zg‘atilgan.[13]

• Hududiy va yo‘nalishdagi faollik: O‘sish sur’atlari keyingi davrlarda ham saqlanib qolib, xususan, 2025-yilning dastlabki 6 oyi mobaynida ham yuzlab murojaatlar ko‘rib chiqilgan.

• Murojaatlarning asosiy qismini ta’lim, sog‘liqni saqlash, moddiy ta’minot, aliment undirish hamda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish masalalari tashkil etadi.

Amaliy himoya choralari va xalqaro hamkorlik. Bolalar ombudsmani faoliyati faqatgina shikoyatlarni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki aniq amaliy natijalarni ham beradi:

• Xorijdan bolalarni qaytarish: O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, biroq chet davlatlarda ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lib qolgan bolalarni vatanga qaytarish borasida salmoqli ishlar amalga

[13] Bolalar ombudsmani rasmiy sayti — URL;bolalarvakili.uz/ru/publications/reports

oshirildi. Xususan, Bolalar ombudsmani va manfaatdor idoralar hamkorligida 2024-yilning o‘zida xorijda qiyin ahvolda qolgan 52 nafar bola O‘zbekistonga olib

kelinib, ularning huquqlari tiklandi va oilaviy muhitga yo‘naltirildi.

• Zo‘ravonlikka qarshi kurash: Institut tomonidan bolalarga nisbatan zo‘ravonlik yoki ularning huquqlarini poymol qiluvchi har qanday holat qattiq nazoratga olinib, ta’sirchan taqdimnomalar va qonuniy choralar ko‘rilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Bolalar ombudsmani instituti kelajak avlod huquqlarini ishonchli himoya qilish, mamlakatda demokratik qadriyatlar va insonparvarlik tamoyillarini yanada mustahkamlashning muhim huquqiy mexanizmi hisoblanadi. U qog‘ozda emas, balki real hayotda har bir bola manfaatining ishonchli qalqoni ekanini amalda to‘la tasdiqlamoqda.

## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarining milliy-huquqiy asoslari ko‘p pog‘onali tizimni tashkil etadi. Uning yuqori pog‘onasida Konstitutsiya, xalqaro huquqiy asosida esa BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi turadi. Ushbu asoslar “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, Oila kodeksi, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid maxsus qonunchilik hamda Bolalar ombudsmani instituti orqali konkret mexanizmlarga aylantirilmoqda.

2023-yilgi Konstitutsiyaning 76–79-moddalarida oilaning, ota-onalarning va davlatning bolaga nisbatan majburiyatlari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Ayniqsa, 78-moddada bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda uning to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati sifatida belgilanishi muhim huquqiy kafolatdir.

Umuman olganda, O‘zbekistonda bola huquqlarini himoya qilish tizimi deklarativ himoyadan institutsional va protsessual himoyaga tomon rivojlanmoqda. Keyingi bosqichda bolaning fikrini eshitishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish, huquqiy xabardorlikni oshirish, Bolalar ombudsmanining hududiy va raqamli murojaat mexanizmlarini rivojlantirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli muhitda bolalar huquqlarining maxsus kafolatlarini rivojlantirish muhim vazifalar bo‘lib qoladi.

## FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni:2020-yil 13-mart , O‘RQ-610-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz: https://lex.uz/docs/-4761984
2. United Nations General Assembly. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1). United Nations. https://sdgs.un.org/2030agenda
3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya: BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qaroriga muvofiq qo‘shilgan. Norasmiy tarjima. — Lex.uz: https://lex.uz/uz/docs/-2595913
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari, 2026-yil. — Kun.uz: https://kun.uz/news/2026/07/01/ozbekiston-aholisining-385-foizi-hali-20-yoshga-tolmagan-8e087b
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan, XIV bob, 50, 77 va 78-moddalar. — Lex.uz: https://lex.uz/docs/-6445145

6. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi Qonuni: 2019-yil 6-fevral, O‘RQ-518-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz: https://lex.uz/docs/-4193761
7. United Nations Treaty Collection. Convention on the Rights of the Child, New York, 20 November 1989. — https://treaties.un.org
8. Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya, 2, 3, 6 va 12-moddalar. — Lex.uz: https://lex.uz/uz/docs/-2595913
9. United Nations Treaty Collection. Optional Protocols to the Convention on the Rights of the Child: status of ratification, Uzbekistan. — https://treaties.un.org
10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan; 2023-yilgacha amalda bo‘lgan tahrir), 45, 64 va 65-moddalar. — Lex.uz: https://lex.uz/acts/-20596
11. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz: https://lex.uz/acts/-1297315
12. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida»gi Qonuni: 2024-yil 29-fevral, O‘RQ-917-son// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi — Lex.uz
13. Bolalar ombudsmani rasmiy sayti — URL;bolalarvakili.uz/ru/publications/reports